

**YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA INVESTITSIYA
LOYIHALARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING NAZARIY-
METODOLOGIK XUSUSIYATLARI**

*Navoiy innovatsiyalar universiteti
Iqtisodiyot va axborot texnologiyalari
kafedrası magistranti A.Shomurodov*

Annotatsiya: *Yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida investitsiya loyihalarining samaradorligini ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy parametrlarni hisobga olgan holda baholash barqaror rivojlanishning eng muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Maqolada yashil iqtisodiyot kontekstida investitsiya loyihalari samaradorligini baholashning nazariy yondashuvlari va metodologik vositalari ko'rib chiqilgan, ta'lim va innovatsion muassasalar xususiyatiga moslashtirilgan asosiy mezonlar hamda indikatorlar taqdim etilgan. Samaradorlikni baholashning an'anaviy moliyaviy modellariga ekologik ko'rsatkichlarni integratsiya qilish zarurati asoslab berilgan, shuningdek iqtisodiy-matematik, ekologik va ijtimoiy baholash elementlarini birlashtiruvchi kompleks metodika taklif etilgan.*

Tadqiqot natijalari barqaror rivojlanishga va yashil investitsiyalarni joriy etishga yo'naltirilgan universitetlar, ilmiy-ta'lim markazlari hamda tashkilotlar tomonidan foydalanilishi mumkin.

Kalit so'zlar: *yashil iqtisodiyot, investitsiya loyihasi, samaradorlikni baholash, barqaror rivojlanish, ekologik ko'rsatkichlar, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik.*

Abstract: *In the context of the transition to a green economy, evaluating the effectiveness of investment projects while taking into account environmental, social, and economic parameters is considered one of the most important elements of sustainable development. The article examines theoretical approaches and methodological tools for assessing the effectiveness of investment projects within*

the framework of the green economy and presents key criteria and indicators adapted to the specific characteristics of educational and innovative institutions. The necessity of integrating environmental indicators into traditional financial models for efficiency assessment is substantiated, and a comprehensive methodology combining economic-mathematical, environmental, and social evaluation elements is proposed.

The research results can be used by universities, research and educational centers, and organizations focused on sustainable development and the implementation of green investments.

Keywords: *green economy, investment project, efficiency assessment, sustainable development, environmental indicators, socio-economic efficiency.*

Zamonaviy iqtisodiy siyosat iqtisodiy samaradorlik va ekologik xavfsizlikning muvozanatli o'zaro ta'sirini nazarda tutuvchi barqaror rivojlanishga yo'naltirilgan. Yashil iqtisodiyotga o'tish investitsiya loyihalarini baholashning an'anaviy yondashuvlarini qayta ko'rib chiqishni talab etadi: iqtisodiy foyda endilikda atrof-muhit va jamiyatga ta'siridan ajratilgan holda ko'rib chiqilishi mumkin emas. Innovatsion faoliyatni amalga oshiruvchi tashkilotlar (jumladan, universitetlar) uchun bu ayniqsa dolzarbdir, chunki investitsiyalar nafaqat infratuzilmaga, balki intellektual salohiyatni shakllantirishga, ekologik va ijtimoiy innovatsiyalarga ham yo'naltiriladi.

Bu jarayonda investitsiya loyihalarini baholashning nazariy va metodologik asoslari alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ular yashil iqtisodiyot tamoyillarini hisobga olishi lozim. Mazkur ishda ushbu asoslar energiya tejamkor texnologiyalar va barqaror boshqaruv amaliyotlarini faol joriy etayotgan Navoiy Innovatsiyalar Universiteti misolida tadqiq etilgan.

Raqobat kuchayib borayotgan, iqtisodiyot raqamlashtirilayotgan va barqaror rivojlanish modellariga o'tish zarur bo'lgan hozirgi sharoitda korxonalar iqtisodiy o'sishining asosiy omili ularning investitsiya salohiyati bo'lib, u modernizatsiya

qilish, innovatsiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish qobiliyatini belgilaydi.

O'zbekiston uchun, iqtisodiyoti tarkibiy transformatsiyalar bosqichini boshdan kechirayotgan bir sharoitda, investitsiya salohiyatidan foydalanish samaradorligini baholash masalasi alohida dolzarblik kasb etadi. Bu masala nafaqat sanoat sektorini modernizatsiya qilish zarurati bilan, balki global integratsiya sharoitida biznesning raqobatbardoshligini oshirish, inson kapitalini rivojlantirish va texnologik yangilanish ehtiyoji bilan ham bog'liqdir. Mamlakatga investitsiyalarning sezilarli oqimiga qaramay, ularning korxonalar darajasida samarali foydalanilishi bir xil emas, bu esa chuqur ilmiy tahlil va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni talab etadi. O'zbekistonda investitsiya faolligi makroiqtisodiy, tarmoqlararo va institutsional omillarning uyg'unlashuvi bilan belgilanadi. So'nggi yillarda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining o'sishi kuzatilmoqda, biroq ularning tuzilmasi muvozanatsizligicha qolmoqda — investitsiyalarning sezilarli qismi qazib oluvchi tarmoqlarga yo'naltirilayotgan bo'lsa, qayta ishlovchi sanoatga ajratilayotgan mablag'lar yetarli darajada emas.

Yashil iqtisodiyot inson farovonligi va ijtimoiy tenglikni oshirish bilan birga ekologik xavflar hamda tabiiy resurslar tanqisligini sezilarli darajada kamaytirishga qaratilgan iqtisodiy rivojlanish modeli sifatida ta'riflanadi. Yashil iqtisodiyotning asosiy elementlariga energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, chiqindilarni barqaror boshqarish va ekologik yo'naltirilgan innovatsiyalar kiradi.

Yashil iqtisodiyotdagi investitsiya loyihasi — bu iqtisodiy foyda olish bilan bir qatorda ekologik va ijtimoiy samaralarga erishish maqsadida yangi aktivlarni yaratish yoki mavjudlarini modernizatsiya qilishga qaratilgan rejalashtirilgan chora-tadbirlar majmuidir. An'anaviy loyihalardan farqli ravishda, "yashil" investitsiyalar barqaror natijalarga yo'naltirilgan bo'lib, ular nafaqat moliyaviy ko'rsatkichlar, balki atrof-muhitga salbiy ta'sirning kamayishi orqali ham baholanadi.

An'anaviy investitsiya loyihalarini baholash usullari sof joriy qiymat (NPV), ichki daromadlilik normasi (IRR) va o'zini oqlash muddati (PP) kabi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Yashil iqtisodiyot loyihalari uchun ularga

qo'shimcha ravishda ekologik va ijtimoiy indikatorlar ham kiritiladi:

- CO₂ chiqindilarini qisqartirish darajasi;
- Bazaviy daraja bilan solishtirganda energiya samaradorligi;
- Qayta tiklanmaydigan resurslar iste'molini kamaytirish;
- Aholining jalb etilgan guruhlar hayot sifatira ta'siri.

Samaradorlikni kompleks baholash uchta tarkibiy qism bo'yicha integral ta'sirni hisobga olishi lozim: iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy barqarorlik.

Ekologik xavflarni baholash loyiha amalga oshirilishi natijasida atrof-muhitga yetkazilishi mumkin bo'lgan salbiy ta'sirlarni aniqlash va ularni kamaytirish choralari ishlab chiqishdan iborat. Bunga chiqindilarni sifat va miqdor jihatdan baholash, biologik xilma-xillikka ta'sirni aniqlash, ifloslanish xavflarini tahlil qilish va boshqalar kiradi. Ushbu baholashlar tuzatish koeffitsiyentlari orqali loyihaning moliyaviy modeliga integratsiya qilinadi.

Ijtimoiy samaralar sog'liqni saqlash, bandlik, mehnat sharoitlari va ta'lim jarayoni sifatiga ta'sirni o'z ichiga oladi. Ta'lim muassasalari sifatida universitetlar investitsiyalarni nafaqat moliyaviy ko'rsatkichlar, balki ta'lim sifati oshishi, talabalarni jalb qilish darajasi va ilmiy salohiyatning barqaror rivojlanishi nuqtayi nazaridan ham baholashlari zarur. Navoiy Innovatsiyalar Universiteti o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi: kampusning energiya samaradorligini oshirish, "yashil" laboratoriyalarni joriy etish, ekologik startaplar ekotizimini yaratish va barqaror rivojlanish sohasidagi ta'lim dasturlari sifatini oshirish.

Bizning loyiha energetika infratuzilmasini modernizatsiya qilishga qaratilgan bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi: quyosh panellarini o'rnatish, energiya iste'molini boshqarishning intellektual tizimlarini joriy etish, isitish tizimini rekonstruksiya qilish.

Xulosa qilib aytganda, yashil iqtisodiyot sharoitida investitsiya loyihalarining samaradorligini baholash kompleks yondashuvni talab etadi. Bu yondashuv an'anaviy moliyaviy usullar bilan bir qatorda ekologik va ijtimoiy ko'rsatkichlarni ham qamrab oladi. Ko'p mezonli tahlil, ekologik me'yorlash va

ijtimoiy samaralarni baholashdan foydalanish investitsiya tashabbusining haqiqiy qiymatini yanada to'liq aniqlash imkonini beradi.

Navoiy Innovatsiyalar Universiteti misolida ushbu metodologiyani qo'llash ta'lim muassasalari rivojlanish strategiyasiga yashil tamoyillarni integratsiya qilish ularning umumiy barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirishini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Turchin, L.Ya. (2018). *Innovatsion rivojlanish iqtisodiyoti*. — Moskva: Nauchnyy mir.
2. Smirnov, A.V. (2020). *Investitsiya loyihalarining samaradorligini baholash usullari*. — Sankt-Peterburg: Piter.
3. Ivanova, E.P., & Kuznetsov, I.I. (2022). "Investitsiya loyihalarini baholashda ekologik ko'rsatkichlarni integratsiya qilish" // *Barqaror rivojlanish jurnali*. — № 4, 45–59-betlar.